

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

RAXMATOV NURIDDIN NEGQADAMOVICH

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALARDA
MA’NAViy-AXLOQiy FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOiy
MUAMMOLARI
Monografiya

Бухоро – 2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB	HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING MA’NAVİY-AXLOQIY MEROSINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	3
1.1.§	Husayn Voiz Koshifiy merosini o‘rganish jarayonida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish–falsafiy muammo sifatida.....	11
1.2.§	Husayn Voiz Koshifiy merosini o‘rganish jarayonida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari.....	44
1.3.§	“Axloqi Muhsiniy” va “Futuvvatnomai Sultoni” asarlarida ustoz - shogird munosabatlari tadqiqi.....	63
	Birinchi bob yuzasidan xulosalar.....	83
II BOB	HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALARDA MA’NAVİY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH.....	85
2.1.§	Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga oid ta’limotlarning mazmuni.....	85
2.2.§	“Axloqi Muhsiniy”, “Futuvvatnomai Sultoni” asarlarida talabalarni ma’naviy-axloqiy rivojlantirishga oid ijtimoiy qarashlar tizimi.....	93
2.3.§	Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi.....	103
	Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar.....	
	XULOSA.....	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	
	ILOVALAR.....	

KIRISH

Dunyoda bugungi kunda globallashuv jarayonida ayrim xalqlar madaniyati rivojlanishida turli darajadagi murakkab ijtimoiy-siyosiy harakatlar va ma'naviy-axloqiy transformatsiya almashinuvi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, insoniyat jamiyatini tashvishga qo'yayotgan muammo shundan iboratki, o'z maqsadlariga erishish uchun olib borilayotgan bugungi kurashda xalqaro huquqqa zid bo'lgan usul va vositalardan foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Shubhasiz, bunday sharoitda xalqning falsafiy tafakkuri va ayniqsa, buyuk mutafakkirlarning falsafiy g'oyalarini o'rganish va tahlil qilish, bir tomondan, yosh avlodni axloqiy tarbiyalash va ma'naviy yuksaltirishda milliy xususiyatlarni hisobga olish, ikkinchi tomondan, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Husayn Voiz Koshifiy merosi bugungi kundagi oliy maqsadimiz bo'lgan yoshlarimizni komillik, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, qolaversa, jamiyatimizda ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi o'rnini qayd etar ekanmiz, ushbu mutafakkir merosini har tomonlama tadqiq etish va o'rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etaveradi.

Jahondagi oliy ta'lim muassasalarida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boy merosini o'rganish oliy ta'lim muassasalarida, ularning asarlari ta'sir doirasi kengayish omillari va yosh avlodni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham, milliy ta'lim va tarbiya sohasiga ajdodlar merosini keng joriy etish asosida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, jahon kutubxonalarida Husayn Voiz Koshifiyning axloq ilmi, ustoz-shogird munosabatlari, chiroyli xulq va muloyimlik, rostgo'ylik, sabr, qanoat, adolat, muomala va suhbatlashish, farosat tushunchalari tadqiq qilingan ta'lim-tarbiya sohasidagi maxsus asarlari bilan yaqindan tanishib chiqish hamda bu manbalardagi jamiyat, inson, hayot tarzi,

odamiylik, muruvvat, futuvvat, saxovat, kasb-hunarni egallash, insonning turli-tuman ehtiyojlari, ilm-fanning jamiyatdagi o'ri haqida o'z mulohazalarini chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish, tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muomala madaniyati, insonparvarlik, tinchlik va hamjihatlikka intilishi, bag'rikenglik, vatanparvarlik haqidagi muhim xislatlarni takomillashtirish va jamiyat taraqqiyoti farovonligini ta'minlash, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan o'qitish metodikasini takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilanmoqda. Aynan allomalarning boy ilmiy merosini o'rganish, xususan, Husayn Voiz Koshifiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari nafaqat o'zbek xalqining pedagog tafakkurini yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi, balki kelajakda ta'lim va tarbiya sohasini modernizatsiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda tarixiy, ilmiy, madaniy, milliy qadriyatlarni, shu jumladan, pedagogik qadriyatlarni yanada izchil va chuqurroq o'rganish va qayta tiklash zarurati mavjud. Ushbu yo'nalishda o'zbek xalqi so'nggi yillarda asta-sekin jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylanmoqda. Istiqlool sharofati bilan mamlakatimizning jahon hamjamiyati oldidagi obro'-e'tibori tobora oshmoqda. Bu esa, boy madaniy merosimiz bilan chambarchas bog'liq. Ajdodlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab ma'naviy-axloqiy g'oyalar, shu jumladan, Husayn Voiz Koshifiy merosi, bir necha asrlar mobaynida ko'plab avlodlarni tarbiyalash va o'qitilishi haligacha o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu tadqiqot mavzusini o'rganish jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2017-yil 19-maydagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5046-sonli, 2017-yil 28-iyuldagi Ma'naviy-ma'rifiy

ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidagi PQ-3160-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24 - maydagi Qarori, Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2995-sonli qarorlari, 2019-yil 8-apreldagi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5465-sonli Farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY MEROSINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Husayn Voiz Koshifiy merosini o'rganish jarayonida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish – falsafiy muammo sifatida

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonning yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muammolar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bugungi kun yoshlarini barkamol etib tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros hamda nodir boyliklardan unumli foydalanish, ularning asarlarida qayd qilingan yoshlar tarbiyasiga oid g'oyalarni samarali qo'llash pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Talabalarni mutafakkirlarning ma'naviy merosidan foydalanib ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish muammosi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Jahonda talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish muammosini tadqiq qilish – ularning ongi tafakkuri, shuuri bilan belgilangan qoidalar darajasiga ko'tarilishi-xalqimiz yaratgan boy ma'naviy merosi, o'lmas qadriyatlari, e'tiqodiy an'analarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu kabi tadqiqotlar hozirgi kunda bizni ikki jihati bilan o'ziga jalb qiladi. Birinchidan, Sharq mutafakkirlarining jahon sivilizatsiyasi rivojlanishida ma'naviy merosining ahamiyati asos vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchidan esa respublikamiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o'z Vatanini sevish, ularda milliy g'urur sifatlarini shakllantirishda ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sho'ro davri pedagogikasida butun bir avlod tarbiyasida milliy qiyofani, o'zimizga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni unutishga, ajdodlarimizning ma'naviy merosini o'rganishda "kommunistik mafkura"ni o'zlashtirish g'oyasi ruhida tarbiyalash an'anaga aylangan [64]. Shu nuqtayi nazardan ushbu

tadqiqotimizni bugungi kunda dolzarb bo'lgan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish muammosiga bag'ishladik.

Yangi O'zbekiston yoshlari ajdodlarimizning ilmiy merosini o'rganishi, undan o'zining kamol topishida foydalanishi zarurligini zamonning o'zi talab etmoqda. Jumladan, Suhravardiy (549- tug'ilgan), Al-Farg'oniy (797 - 865) Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (810-870), Al-Motrudiy (vafoti 945) Burxoniddin Marg'inoniy (1123-1197), Bahouddin Naqshbandiy (1318-1389), Jaloliddin Manguberdi (1199—1231), Jaloliddin Rumiy (1207-1273), Sohirqiron Amir Temur (1336-1405), Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) kabi ulug' shaxslarning ma'naviy-axloqiy merosini o'rganish ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu dissertatsiyada Husayn Voiz Koshifiy asarlaridagi ma'naviy-axloqiy fazilatlar: ustoz-shogird munosabatlari, chiroyli xulq va muloyimlik, rostgo'ylik, sabr, qanoat, adolat, vafo va ahd, omonat va diyonat, shafqatlilik, muomala va suhbatlashish, farosat tushunchalari dissertant tomonidan zamon talabi nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan [79, 80, 81, 82, 83]. Ushbu tushunchalarning bugungi kun yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati, shaxs sifatida shakllanishidagi ijobiy sifatlar haqida so'z yuritiladi.

Mazkur monografiyaning obyekti sifatida Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ilmiy merosi asos qilib olingan. Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ilmiy merosi o'tgan asrning 80-yillarigacha nisbatan kam o'rganilgan. Ammo Husayn Voiz Koshifiyning ism-sharifi manbalarda, olimlarning asarlarida turlicha nomlangan. Masalan, XV asrning "Amir al-muarrixin" ("Tarixchilar amiri") unvoniga ega mashhur tarixchisi G'iyosiddin Xondamir "Makorim ul-axloq" asarida "Ismi Husayn ibn Ali Bayhaqiy Hiraviy, taxallusi bo'lib, Voiz Koshifiy nomi bilan mashhur" deb qayd qilsa, "Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor" ("Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi") 1498-1499-yillar orasida yozilgan asarida esa "Mavlono Kamoluddin Husayn Voiz", O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi B.Ahmedov [36] Kamoluddin Husayn ibn Ali Voiz al-

Koshifiy, Husayn binni Aliyul–Koshifiy, akademik A.Mirzoyev Mullo Husayn binni Ali Voiz Koshifiy, Xoliq Mirzozoda Husayn Voiz Koshifiy, tadqiqotchi O.Usmonova esa Kamoluddin Husayn ben Ali Boyhaqi Xurosoni, mutafakkir asarlarining qo‘lyozmalarini ko‘chiruvchi xattotlar esa “Kitobi Hotamnoma” asarida “Husayn al Koshifiy” [3], “Axloqi Muxsiniy” asarida esa Mavlono Husayn Voiz [4] degan nomlar bilan atalganligini ko‘rish mumkin.

Sank-Peterburglik sharqshunos olim Abdurahmon Tohirjonov esa Kamoliddin Husayn ibn Ali Voiz deb adabiy taxallusini esa al-Koshifiy, al-Bayhaqi, as-Sabzavori, al-Haravi deb yuritilishi haqida ma’lumot beradi [36].

Eron olimi Said Nafisiy “Eron antologiya”sining birinchi jildida Kamoliddin Husayn bin Koshifiy Bayhaqi Harovi, mulla Husayn Koshifiy deb ishlatga, boshqa asarlarida esa al-Shikafiy deb nomlanganini e’tirof etadi. Husayn Voiz Koshifiyning ism-sharifi turlicha qo‘llanishi uning shaxsi bilan bog‘liq ma’lumotlardagi nomlanishlar bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Natijada ba’zi olimlar Husayn Voiz Koshifiyning o‘g‘li shoir, olim Faxriddin Ali Safiy asarlarini ham Koshifiy asarlari deb talqin qiladigan tadqiqotchilar ham uchraydi[41].

Bizningcha “mavlono”, “hakim”, “kamol”, “mahdum”, “mulla” so‘zlarining umumiy ma’nosi bir xil bo‘lib hurmat, yetuklik, o‘qimishlilik, donishmadlik ma’nosida qo‘llanilgan. Shuning uchun ham uning ismi Kamoliddin, otasining ismi esa Husayn, adabiy taxallusi voiz Koshifiy deb yuritilgan.

O‘rganilgan manbalar va olib borilgan tadqiqotlarning xulosasiga tayanib, Husayn Voiz Koshifiy 1440-yilda Xuroson viloyati Sabzavor shahri Bayhaq kentida tug‘ilgan. U boshlang‘ich ma’lumotni Sabzavorda oladi. U arab, fors va turkiy (chig‘atoy) tillarni va matematika, astronomiya, kimyo, adabiyot kabi fanlardan chuqur ma’lumotga ega bo‘lgan. Yoshligidanoq voizlik, so‘z san’ati bilan shug‘ullanadi. Natijada Sabzavorda o‘zi yosh bo‘lsa-da, ko‘zga ko‘ringan voiz bo‘lib taniladi. Bizga noma’lum bo‘lgan manbalarda qayd qilinishicha, Husayn Voiz Koshifiy 1455-1468 yillarda Nishopur va Mashhadda yashab voizlik qilgan. U 1468 - yilning oxirida Hirotga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni./ <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi RF- 6097-son farmoni. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyul "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi RQ-3160-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi RF-4947-son Farmoni. - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y, 6-son, 70-modda. 38bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" RF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi RQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" RQ-4038-son qarori. <https://lex.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qaytatayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-

Ўқитувчи, 1996. – 199 б.

111. Педагогика энциклопедия. I жилд / тузувчилар: жамоа. // Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2015. – 320 б.
112. Саади Муслихиддин. Избранное/ Перев. Е.Э. Бертельса и К.Липескерова. - Сталинабад, Таджикгосиздат, 1954. - 284 с
113. Саади. Бустан. Лирика. - М.: Наука, 1962. - 321 с.
114. Саъдии Шерози. Куллиёт. - Душанбе: Адиб, Ч.1-1988.
115. Салаева М.С. Ўзбек педагогикаси тарихини даврлаштиришнинг назарий-методологик асосларини такомиллаштириш. Пед. фан. докт. (DSc) диссертацияси. -Нукус: 2019. 288 б.
116. Соҳибов А. Миллий педагогика тараққиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 2004. –56 б.
117. Тримингем Дж. С. Суфийские ордены в исламе. Перевод с английского Азы Ставиской. — М.: Наука; Главная редакция восточной литературы, 1989. — 328 с.
118. Qodirov Q.B. Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziyning muhaddislik faoliyati va tarbiyaviy qarashlari: Ped. fan. nomz. diss... Toshkent, 2008. – 141 b.
119. Qodirov Q.B. Islom madaniyati manbalarida ijtimoiy falsafa-psixologik fikrlar taraqqiyoti: Ped. fan. dokt. diss... avtoref. Termiz, 2022 – 64 b.
120. Qodirov Q. Imom at-Termiziy hadislarida tarbiya va islom madaniyati: monografiya / Q.B.Qodirov; M.E.Haydarovning umumiy tahriri ostida. – Т.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 120 b.
121. Хайруллаев М. Ўтмиш мутафаккирлари таълим-тарбия ҳақида / Халқ педагогикаси - инсон камолотининг асоси. 1 -китоб. Т.: ЎПФИТИ, 1992. -110 б.

122. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. Toshkent. 2000. -110 b.
123. Шайхова Х., Назаров Қ. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. - Т.: Фан, 1992. -110 бет
124. Hoshimov K. Pedagogika tarixi: Darslik. II qism Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent - 2005, 168-b.
125. Ҳусайн Воиз Кошифий. Калила ва Димна. Душанбе: “Адиб” нашриёти, 1989 (тожик тилида).
126. Ҳусайн Воиз Кошифий. ”Ахлоқи Мухсиний”. ЎзР ФА ШИ. Қўлёзмалар фонди. Инвентар № 13817. 18–боб. 88–бет.
127. Хўжаев Н., Хошимова М., Ҳакимова М., Очилова Г., Мусахонова Г. Педагогика / Дарслик. – Т.: 2009. 374 б.
128. Eddy, Samuel Kennedy. The king is dead: studies in the Near Eastern resistance to Hellenism, 334-31 B.C. Lincoln: University of Nebraska Press, 1961
129. Dwight M. Donaldson, Studies in Muslim Ethics (London: S. P. C. K., 1953)
130. Edward G. Browne. A hand-list of the Muḥammadan manuscripts, including all those written in the arabic character, preserved in the library of the university of Cambridge. Cambridge : University Press, 1900.
131. Erwin I. J. Rosenthal, Political Thought in Medieval Islam. An Introductory Outline, Cambridge 1958.
132. Henry George Keene. Akhlak-I Muhsini: Or The Morals Of The Beneficent. Kessinger Publishing, LLC (September 10, 2010)
133. Lambton, and Bernard Lewis (editors), The Cambridge History of Islam, Volume 2B: Islamic Society and Civilization, Cambridge: Cambridge University Press, 1970.

